Tavsiyalarim shundan iboratki(buni o'quvchilarda qo'llay boshlaganman), yuqori sinf o'quvchilari "Iqtiboslar" –jamlanma lug'at daftari tashkil etib, unda mualliflarini alifbo tartibida ,masalan: A.Navoiy: 1. :" Tilki fasih va dilpazir bo'lg'ay, Agar ko'ngil birla birga bo'lgay." 2. " Olam ahli bilingizkim ish emas dashmanlig' , Yor o'lung bir-biringizgakim , erur yorlig' ish." A.S.Ekzyuperi:1. " Tarbiya ta'limdan ustun turadi , insonni tarbiya voyaga yetkazadi"… singari;mustaqil mutolaa qilayotgan, darsda muhokama etilayotgan asarlardan muhim parcha-iqtiboslarni qayd etib borsalar. "Yosh kitobxon" tanlovingin ham ma'lum sharti –asardan o'qilgan parcha- iqtibos asosida nomi va janrini aniqlash e'lon qilinadi. Bu esa xotirani charxlab, so'zshunoslik , so'zamollik, sinchkovlik, sergaklik ,hozirjavoblikni oshirib ,o'quvchi-kitobxonni yangi asar "ishg'ol"iga chorlaydi. Ona tilidan nazorat darslarida aynan iqtiboslardan (sinf me'yoriy miqdoriga mos ravishda) ta'kidiy , saylanma, grammatik topshiriqli diktantlarning olinishi ham lisoniy , ham adabiy bilimlar, ham tafakkur oshishiga turtki , darkor omil bo'ladi , deb o'ylayman. Ba'zan iqtibos ichida iqtibos kelib nutq ta'sirchanligini o'n chandon ziyoda qilmog'ining guvohi bo'lamiz: " Akademik shoir G'.G'ulom shunday xotirlaydilar: Komil Aliyev shunday degan edi: Sarlavhasi bilan tagiga yoziladigan o'z noming naqd bo'lsa, asaring bitdi deyaver".("Til va adabiyot ta'limi" 2014- yil. 7-son) Ijtimoiy tarmoqlardagi " Badiiy iqtibos", "Kutubxona", "Til kengashi","Jaloliddin Rumiy" kabi talay kanallar ham aynan siz-u biz izlagan asarlar qiymatidan so'zlovchi nodir iqtiboslar xazinasi , javohirlar sandig'i desak adashmaymiz. Iqtiboslar xususida fikrlarim anchagina. Ona tili- so'zshunoslik, adabiyot- insonshunoslik ilmi xazinasi ekan, rus adibi D.I.Pisaryov:" Inson- istagan suyuqlik bilan to'ldirib qo'yish mumkin bo'lgan bo'sh idish emas", deb e'tirof etganidek, farzandlarimiz ongini ruhiy poklikka, komillikkha, xolislikka, halollikkha, diyonatga- axloqiy go'zalliklarga chaqiriq-iqtiboslar bilan "sug'orib" turaylik!

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.“ Tafakkur gulshani”- Toshkent .G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989-y
 - 2.“Ona tili”- 10-sinf uchun darslik. 2017-yil
 - 3.“ Izohli lug'at” – www.ziyouz.com kutubxonasi.263-bet
 - 4.“Til va adabiyot ta'limi” jurnali.2014- yil 7- son



FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY MUNOSABATLARINING TA'SIRI

*Dildora Urozmetova Dushamboyevna
Shovot tumanidagi 9-maktabining
II toifali boshlang'ich o'qituvchisi
Telefon: +998999680266*

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizdagi barcha islohotlarimizning asosida mustaqil fikrlovchi, bilimdon shaxsni tarbiyalash va barkamol insonni tarbiyalashda oila munosabati, milliy merosimiz, shu jumladan, adabiyotning o'rni haqida.

Kalit so'zlar: Oilaviy psixologik muhit, tarbiyada adabiyotning o'rni, ijtimoiy ta'lim-tarbiya, insoniyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar.

„Agar mendan sizni nima qiyaydi? deb so'rasangiz,farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman” -deb aytganlar yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev.

Hozirgi zamonimizda mamlakatimizdagi barcha islohotlarimizning asosida mustaqil fikr yuritadigan, chaqqon, har tomonlama lider shaxsni tarbiyalash masalasi yotadi. Biz yosh avlodni jismonan va aqlan sog'lom, milliy va umumbashariy g'oyalalar ruhi, sharqona odob-axloq, sharmu hayo, mard, jasur, oriyatlilik qilib voyaga yetkazishda, katta e'tibor berishimiz lozim. Sog'lom oila muhitida sog'lom barkamol shaxs vujudga keladi, unib o'sadi. Oila atalmish kichik jamiyatda kamol topgan har bir bolakay kelajakini o'ylashimiz, biz uchun ulkan mas'uliyatdir. Oilada ota savlati, ona mehri bilan farzandlarimizni birdamlikini oshiramiz. Vatanga muhabbatni, elsevarlik ruhini kichik Vatanga muhabbatni orqali ong shuuriga singadi. Inson farzandi ota-onadan genetik meros oladi. Shuning uchun jamiyatimizga sog'lom, mustahkam, kelajaki porloq eng muhimmi zamonaviy, haqiqiy insonparvar oila zarur.

Barkamol insonni tarbiyalashda milliy merosimiz, shu jumladan, adabiyotning o'rni beqiyosdir. Farzandlarimizda axloq-odob, mehr-oqibat, xayr-saxovat, sharmu hayo, xalollik va pokizalik, oriyatlilik kabi fazilatlarni shakkantirishda milliy adabiyotimiz, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Olimlar tomonidan oilaviy psixologik muhitda tarbiyalangan bolalar tajibasidan shuni ko'rish mumkinki: Oilaning to'liq bo'lishi; tarbiya jarayonida ham ota, ham ona birgalikda olib borish; oila a'zolarining normal insoniy munosabati; sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama a'lo rivojlanishni, ham aqlan ham jismonan sog'lom, to'g'ri so'z va to'g'ri yo'lni topishda qiyalmaydigan manan kuchli inson kamol topadi. Aksariyat hollarda masalan, otaning og'zidan bodi kirib, shodi chiqib tursa, ona har gapning birida bolaga kaltak yedirib tursa, ro'zgor tashvishi farzandi oldida muhokama qilinsa, yolg'on so'zlash kabi qandaydir g'adab (zarda, jahl) odatlardan beihtiyor g'adang(nodon, ablah, aqlsiz) farzand tarbiyalab qo'yadi kishi.

Buyuk olimlarimiz ham ta'lim-tarbiya haqida quyidagi fikrlarini ilgari surganlar. Jumladan buyuk faylasuf shoir Bedil hikmatli fikrida shunday degan-”poydevor toshi qiyshiq qo'yilsa binoning boshi yulduzga yetsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi”. Kaykovus qalamiga mansub „Qobusnoma” asarida ham oilaviy pand nasihatlar, bola tarbiyasiga alohida e'tiborini qaratib o'tgan. Ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sino aytadi: „To'g'ri yo'ldan ajralmaslik, insofli, adolatli, halol bo'lish, nafslik har orzusini bajo keltirmaslik, olim, fozillar bilan suhbatdosh bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat va marhamat etish, samimiyo do'stlarning maslahatlari bilan ish tutish, muhtojlarga yordam qilish ma'dani, halollik belgisidir.”

Bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida nafaqat oilaning balki, maktabgacha tarbiya maskanları, maktabning roli va ahamiyati bor. Ularning tarbiyasi yo'lida oila, maktab, mahalla hamkorlik ostidagi ulkan mas'uliyat yotadi. Kattalar bolalarini stressdan himoya qilishlari lozim, ya'ni, tanbeh berishdan saqlanish kerak:

Birinchidan-bolani fikridan qaytarishga urinmaslik kerak.

Ikkinchidan-bolani uyaltirmaslik kerk.

Uchinchidan-bolani urishishdan saqlanish kerak.

Hoh uyda, hoh maktabgacha ta'limida, hoh maktabda biz kattalar o'g'limizga, qizimizga ortiqcha bosim o'tkazishimiz, fikriga bee'tibor bo'lish, qo'rqqani uchun uyaltirish, uning ustidan kulish, o'zlarining muammosi uchun bolalarni urishib hal qilish bularning hammasi bolaga



salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shunday ekan farzandlarimizni o'zimizga kichik o'rtoq, do'st sifatda ko'raylik, garchi shu uzilmas rishtamiz bilan ular kattayganda ham iliq munosabati uzilmasin!

-Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zlgiga sodiq qolishga undab tursin. Bunda nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan (Shavkat Mirziyoyev). Shunday ekan, biz eng avvalo oilaviy psixologik muhitimizni muvozanatlashtirib olaylik va "bola tarbiyalash" kabi ulkan zimmamizdagi ishni oqilona bajaraylik. Kelajakda yurtimiz uchun jonini qalqon qila oladigan o'g'il-qizlarimizdan butun yurt bilan birgalikda faxrlanib o'tiraylik Inshoolloh!

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

1. Sinf rahbari Jurnal.2017/ iyun. 6-son.19-bet.
2. Sinf rahbari. Jurnal. 2018/ yanvar. 1-son.32-bet.
3. Uc Browser. Yandex. Tarbiya haqida.
4. Uc Browser. Google. Tarbiya haqida prezidentimiz SH.Mirziyoyev fikrlari.



SPORT O'YINLARI VA ULARDAGI CHIDAMLILIK

*Samarqand viloyati Bulung'ur tumani
XTB ga qarashli 62- maktabjismoniy tarbiya fani o'qituvchi
Xonimqulov Anvar Suyunovich*

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida «uqitish» muhim o'rinni egallaydi. Bu jarayonda harakat faoliyatini uning ma'lum bo'lagini bajarishga o'rgatiladi, bu harakatni mashq qilish-takrorlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon o'z navbatida shug'ullanuvchida shu harakat haqida nazariy bilimning shakllanishiga, jismoniy sifatlarni rivojlantirilishi tarbiyalanishiga olib keladi. Demak jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim maxsus bilim va harakatni bajara olishni uzlashtirish va uni o'quvchiga qo'yishdir, chunki jismoniy ma'lumot berishdir.

Kalit so'zlar: Gandbol , o'yin chiniqish, to'p, musobaqa, yugurush.

Ayrim sport turlarida va jismoniy mashqlarda tananing umumiyligi holati bilan uning ayrim qismlari (bulaklari) holatlari biomexanik, maqsadga yo'naltirilgan bo'libgina qolmay (kon'kida figurali uchuvchilar, gimnastlar, akrobatlar, suvgi sakrovchilar va badiiy gimnastikachilarning harakaktlari) harakatni kuzatayotganlarda, chunki uni bajaruvchilarda estetik his tuyg'uni shakillantiradi va ularga zavq beradi. Harakatlarning ravonligi, ketma ketligi, erkinligi qiyinchiliksiz bajarish inson jismining qanday holatdaliliga bog'liqligi jismoniy mashqlar texnikasini egallahda, harakatni o'rgatish jarayonida, hatolarni aniqlash va ularni tuzatishda muhim rollarni aniqlash va tuzatishda muhim rol o'ynaydi. Bunday sport o'yinlaridan bir gandbol.

GANDBOL

Gandbol o'yinining asosini yugurish , sakrash , to'pni uzatish , uloqtirish kabi shug'ullanuvchilarning har jihatdan uyg'un rivojlanishiga yordam beradigan tabiiy harakatlar tashkil etadi. Yuklamalar organizmdagi barcha funksional tizimlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Mashg'ulotlar ta'sirida, shuningdek , musobaqalarda shug'ullanuvchilarning ruhiy faoliyati takomillashadi, tezlik reaksiyasi , chandalash , ijodiy fikr yuritish , tezlik va tashabbuskorlik kabi sifatlari rivojlanadi . Gandbol o'yini umumiyligi jismoniy tayyorgarlik uchun yaxshi vosita bo'lib xizmat qila oladi. Yo'nalishni o'zgartirib xilma-xil yugurish , sakrashning turli xillari, maksimal tezlikda harakat qilish yo'llari bilan jismoniy sifatlarni, ayni paytda irodaviy hislatlarni, taktik tafakkurini kamol topishi tufayli qo'l to'pi har qanday ixtisosdagi talaba uchun zarur bo'lgan sport o'yinlari qatoridan joy olgan.

Qo'l to'pi o'yini 1898 yillarga kelib Daniyaning Ordurupe shahridagi gimnaziyalardan birining o'qituvchisi X. Nelson tamonidan fudboldan farq qiladigan, qizlar uchun mos keladigan yog'inli havoda sport zallarda o'ynasa bo'ladigan, yangi sport o'yinini yaratishga qaror qildi. U darvozabonlarni qoldirib, jamoa sonini qisqartirib, to'pni uzatish, qabul qilish, olib yurish va otish faqat qo'l bilan bajarilishini taklif qildi. Shu tariqa olamda «Xanbal» dunyoga keldi va keyinchalik tezda butun jahonga tarqalib ketdi.

Qo'l to'pi o'yinining mazmunida o'ziga xos bo'lgan texnik va taktik usullar juda ko'p, ularning ba'zi bir xususiyatlari basketbol sport turining harakatlariga o'xshab ketsa ham, uning mazmun mohiyati tubdan farq qiladi. Ayniqsa, to'pning shakli (kichikroq va konussimon) va og'irligi boshqa turdag'i to'plarga.

O'yinda qatnashuvchi jamoa o'yinchilarining maqsadi to'pni egallab olib, himoya qilinib turgan darvozaga kiritish. To'p bilan barcha harakatlar faqat qo'lida bajariladi. To'p uchun kurashda, qarshilik ko'rsatishda qo'pollik va sportchiga xos bo'limgan harakatlar qilinmasligi va qoidaga rioya qilinib bajarilishi lozim. O'yin -ishtiroychilarning yoshi va jinsiga bog'liq bo'lib, o'yin vaqtida har bir o'yinchini o'zining shaxsiy fazilatlarini ko'rsatish imkoniyatlariiga ega. Ammo, shu bilan birga, o'yin har bir gandbolchidan o'z shaxsiy intilishlarini umumiyligi maqsadga bo'ysundirishini talab qiladi.

Xulosa qilib,Vatanimiz ravnaqi va halqimiz faravonligi taminlashni muhim sporti



bo'lgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish xalk manfaati uchun butun borligi bilan kurasha oladigan insonlarni tarbiyalashda sportning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdumalikov R., Yunusov T. T va boshqalar «Uzbekstonda jismoniy tarbiya ta'limining rivojlanishi», metodik tavsyanoma., T., UzDJTInash., 1992
2. Uzbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Konsentsiyasi. Vazirlar maxkamasining 1990 yil 27 maydagi
3. V.Ya.Ignatev. «Gandbol». Moskva, 1983.
4. Sh.Pavlov. «Qo'l to'pi». Darslik. Toshkent, 1990 y
5. Sh.Pavlov. «Qo'l to'pi musobaqalarining qoidalari». Toshkent, 1987 y



ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ- ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Yodgorova Nasiba Sobirovna
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 28-maktab o'qituvchisi
+998995058487*

Аннотация: Мақолада инновацион ёндашув асосида талабаларни интеллектуал-жисмоний ривожлантиришда мантиқий топшириқлардан фойдаланиш хусусида фикр юритилган.

Калит сўзлар: педагогик технология, ўқитувчи фаолияти, фаолият мазмуни, мантиқий топшириқ, инновация, инновацион технология. Инновацион фаолият-педагогнинг ўз касбини такомиллаштиришдаги мавжуд шакл ва воситаларни эгаллашга ижодий ёндашувини назарда тутади. Таълимдаги инновациялар ва инновацион педагогик фаолият ҳақида барқарор ва ҳаммага маъкул бўлган илмий тасаввурлар ва таснифлар шу пайтгача мукаммал таркиб топган эмаслигини ҳам эътироф этиш лозим. Бундай ҳолатнинг асосий сабабларидан бири таълимга йўналтирилган илмий билимлар тизимлари ўртасидаги қийинчилик билан енгиб ўтиладиган узилишлардир.

Инновацион фаолият даврида янгиликлар, инновациялар, том маънода таълим жараёнига кириб келади. Шу сабабли таълим тизимидағи инновацияларни педагогик жараёнга киритиш 4 босқичда амалга оширилади: 1. Муаммони таҳлил асосида аниқлаш. 2. Мўлжалланаётган таълим тизимини лойиҳалаш. 3. Ўзгаришлар ва янгиликларни режалаштириш. 4. Ўзгаришларни амалга ошириш. Инновацион фаолиятга тайёрлашдан мақсад-ўқитувчининг янгиликка интилувчанлигини, мустақил ўз устида ишлаш кўникмаси ва малакасини шакллантириш, янги педагогик технологиялар, интерфаол методлардан фойдаланиб, дарс ва дарсдан ташқари машғулотларини ўtkазиш малакасини такомиллаштиришдан иборат. Инновацион фаолият –бу илмий изланишлар, ишланмалар яратиш, тажриба –синов ишлари олиб бориш ёки бошқа фан- техника ютуқларидан фойдаланган ҳолда янги технологик жараён ёки янги такомиллаштирилган маҳсулот яратиш бўлиб, унинг прогматик хусусияти шундаки, у ғоялар майдонида ҳам ва алоҳида бир субъектнинг ҳаракат майдонида ҳам амалга оширилмайди, балки бу фаолиятни амалга ошириш тажрибаси кишилар ҳаётида ҳаммабоп бўладиган ҳолдагина ҳақиқий инновацион ҳисобланади.

Инновацион фаолият янги гояни излашдан бошланади. Педагогик инновация таълим-тарбия жараёнидаги муҳим ва мураккаб масала ечимиға йўналтирилганлиги сабабли ўқитувчидан янгича ёндашувни талаб қилади. Ақл инсоннинг туғма руҳий ва физиологик хусусияти бўлиб, унинг ёрдамида одамлар дунёни билиб оладилар, олдинги авлодлар томонидан яратилган илмларни ва мавжуд билимларни ўзиникига айлантириб ўзлаштира оладилар. Демак, ақл илм ва билим билан боғлиқ. Илм мавжуд, бор, яратилган нарса, билим эса киши томонидан билиб олинадиган, ўзиники қилиб олинадиган нарсадир. Маълумки, фаолият ишининг англанилган мақсад билан бошқариб туриладиган ички (психик) ва ташқи (жисмоний) фаоллигидир.

Фаолият инсонга хос бўлган, онг ёрдамида бошқариладиган фаоллик бўлиб, эҳтиёж асосида вужудга келади ва инсонни ўзини бошқариш ҳамда ташқи оламни англашга, ўзгартиришга йўналтиради. Фаолиятни ички тузилишини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, у аввало мотив, эҳтиёж, мақсад, операциялардан (ҳатти-ҳаракатлар), кўникма ва малакалардан ташкил топган.

Ақл реал борлиқни назарий жиҳатдан ўзлаштиришнинг олий шакли бўлиб, инсонни фикрлаш қобилияти орқали намоён бўлади. Ақлнинг асосий кўрсаткичлари фикрнинг мустақиллигига, танқидийлиги, чукурлигига, ўзгарувчанлигига ва изчиллигига намоён бўлади. Талабаларнинг ақлий меҳнат фаолиятини ташкил этишда билиш фаолиятининг босқичлари, уларнинг вазифалари инобатга олиниши лозим. Ақлий меҳнат фаолиятининг натижаси сифатида талаба ўзлаштирган билимларини амалда кўллаш лозим. Ана шундагина, ақлий меҳнат фаолияти самарали бўлиши мумкин.

Адабиётлар

1. Леонтьев А.Н. Наука и человечество.
2 т.-М.: Знания, 1963.-366 с.2. Кузьмина С.Л. Философия и педагогика: методологические аспекты истории взаимодействия. //Ж. Педагогика.- 2001. -№5. -8-12 с.
3. Слобадчиков В.И. Проблемы становления и развития инновационного образования. // Ж. Инновация в образовании. -2003 -№2. -4-28 с.



СПОРТ ТУРЛАРИДАН ШУҒУЛАНУВЧИЛАРНИНГ ЮҚОРИ НАТИЖАЛАРГА ЭРИШИШИДА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ

*Полванова Насиба Куронбоевна
Хоразм вилояти Кушкунпир тумани 25-сон
мактабнинг жисмоний тарбия фани уқитувчиси*

Аннотация: Мақолада шуғулланувчи учун спортда юқори натижаларига эришиш учун зарур бўлган психологоик функциялари, хусусиятлари, руҳий ҳолатларини бошқариш кўнкимларини шакллантиришга оид маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: психологоик тайёргарлик, психологоик функция, хотира. Юртимизда жисмоний тарбия ва спорт жадал ривожланиб бораётган бир вақтда спортчилар фаолияти ва уларни тайёргарлик жараёнини такомиллаштириш муҳим масалалардан биридир.

Ҳар бир спортчи ёшнинг маънавий ва ахлоқий сифатларини ривожлантириш, идроки ва ақл-заковатини баҳолаш, уларнинг қобилиятлари ва одамийлик сифатларини ўстириш, етук мутахассис бўлиб етишишига жисмонан ва руҳан таёrlашга эътиборни кучайтириш ижобий натижалар олиб келмоқда. “Психологоик тайёргарлик – кучли асад зўрикиш ҳолатларида (толиқиш, кучли рақобат, хатога йўл қўйиш, етакчилик қилиш ва бошқалар) энг маъқул психологоик ҳолат – хотиржамлик, ўзини идора қилишни сақлашни билиш кўнкимларини шакллантиришга қаратилган психологоик-педагогик тадбирлар тизими”dir. Психологоик тайёргарлик тизимида қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш қабул қилинган:

- 1- базавий психологоик тайёргарлик; 2- машқларга психологоик тайёргарлик;
- 3- мусобақаларга психологоик тайёргарлик; 4- мусобақалардан кейинги психологоик тайёргарлик.

Қуйидаги тизим асосида бир томондан спорт турига хос психологоик хусусиятлар, иккинчи томондан эса спортчининг психологоик жиҳатлари тарбияланади. Спортда юқори натижаларига эришиш учун зарур бўлган шахснинг психологоик функциялари, хусусият ва сифатлари рўйхатини тузишдан иборат бўлади. Ушбу рўйхат қуйидагича бўлиши мумкин.- кўриш, эштиш, вестубуляр ва ҳаракатчан таҳлил воситаларининг юқори фаоллиги.- эътиборнинг жамлиги, тасаввурларнинг аниқлиги, яхши хотира, фикрлаш тезлиги, чуқурлиги ва мослашувчанлиги, бой тасаввур.

- ирода билан боғлиқ сифатлар: мақсад сари интилувчанлик, қатъийлик, сабр-бардош, ўзини идора қила билиш, ташаббускорлик.- психологоик ҳолатларни ўзи бошқара билиш, салбий таъсирларга қарши тура билиш.

Психологоик таълим ва руҳий ҳолатларни бошқариш кўнкимларини шакллантириш, эътиборни жамлаш, барча кучларни ишга солиш, салбий таъсирларга қарши тура олиш кўнкимларини шакллантириш махсус малака талаб қиласи ва ушбу малакалар махсус назарий ҳамда амалий машғулотлар жараёнинда жамоа психологои ва маълум даражада мураббий томонидан шакллантирилиб борилади. Спортчиларимизда мураббий ҳамда жамоа психологои томонидан ушбу кўрсатилган психологоик хусусият ва сифатлар тарбияланиб борилса, яхши натижалар бериши мумкин. Мусобақалардан сўнг спортчи жуда мураккаб психик ҳолатларни бошдан кечиради. Спортчи ўз чиқишилари натижаларини қандай қабул қилиши кўп жиҳатдан кейинги фаолияти ва маҳоратининг ортишига, ўз устидаги ишлашига таъсир кўрсатади.

Ғалаба ва мағлубият ҳолларининг иккисида ҳам мусобақалардан кейинги психологоик тайёргарлик зарурдир.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги кунда спортчини ғалабага эришиши учун жисмоний тайёргарлик билан бир қаторда психологоик тайёргарлик ҳам асосий ўринни эгаллайди. Спортчидаги юқорида санаб ўтилган хусусиятлар тарбиялаб борилса, спортчи ўзи учун ҳам, мураббий учун ҳам кўзланган натижани бера олади. Бунинг учун таълим муассасаларида ва спорт машғулотлари олиб борилаётган спорт залларда малакали спорт психологлари фаолияти такомиллаштирилса, мамлакатимизда спорт ютуқлари янада кўпайиб, юртимиз нуфузи янада ошади.

Адабиётлар

1. Фозиев Э. Психология. Т.: “Ўқитувчи”. 1994.
2. Ачилов А. Бадиий гимнастика. Т. 2010. 217-бет.
3. Гаппаров З.Г. Спорт психологияси. Т.: Мехридарё МЧЖ. 2011.



РОЛЬ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО СТИЛЯ ЖИЗНИ У УЧЕНИКОВ МЛАДШЕ ШКОЛЬНОГО И СТАРШЕ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Усмонов Равшанбек Салимович
учитель академического лицея
Ферганского политехнического института,
Назарова Дилфуза Кимсанбой кизи,
учительница 14- школы города Ферганы
Телефон:+998(90) 5625624
mihayuo-akbarova@mail.ru

Аннотация. В данной статье обсуждается важность физического воспитания в формировании здорового образа жизни и роль урока физической культуры в формировании здорового стиля жизни у учеников младше школьного и старше школьного возраста.

Ключевые слова. Физическая культура, здоровый стиль жизни, здоровый образ жизни, гармоничность, смыслотворчества, личная эволюция, вариативность.

Уменьшение двигательной активности, увеличение учебных нагрузок, создающих психологическую и эмоциональную напряженность – отличительные черты современной школы, которые рассматриваются учеными в качестве основных источников развития заболеваний. Не случайно, в первую очередь система образования, современная школа обратила пристальное внимание на эти вопросы.

Высокие учебные нагрузки выдерживают только физически хорошо развитые, выносливые, здоровые дети. Школа, объединившись вместе с семьей, может обеспечить ребенку нормальное физическое развитие и помочь сохранить здоровье. Их деятельность по поддержанию адекватного двигательного режима должна носить системный характер. Регулярные занятия физическими упражнениями – это широкий спектр форм, средств и методов для управления индивидуальным состоянием личности. Можно утверждать, что по силе потенциала и способности воздействия на сохранение и приумножение здоровья, физические упражнения, различные виды адаптации и оздоровления – самые значительные и эффективные, поскольку любая из ценностей физической культуры в той или иной мере «работает» на здоровье.

Перед каждым участником образовательного процесса были поставлены конкретные цели. В частности, цель учителя физкультуры - формирование здоровой личности.

Для учителей физической культуры основными направлениями деятельности на ближайшую перспективу являются:

- внесение изменений в подходы к преподаванию предмета «физическая культура» - переориентация с дифференцированного подхода на личностно-ориентированный;
- углубление и дополнение содержания предмета за счет включения теоретических вопросов укрепления здоровья и методов оздоровления, в том числе нетрадиционных видов гимнастики;
- разработка методов наблюдения за физическим развитием, учитывающих развитие мышечной, сердечно-сосудистой и дыхательной систем.

На уроке физической культуры, как ни в одном другом, совмещаются три образования: обучение, развитие, воспитание. Соответственно, особое внимание уделяется воспитательной составляющей занятий:

- формирование ценностного отношения к здоровью;
- воспитание потребности в увеличение физкультурно-оздоровительной активности.

Определение смысла, который вкладывается в понятия «здорового стиля жизни» и «здорового образа жизни». Несмотря на неоднозначные трактовки в литературе, на взгляд понятия «здоровый образ жизни» и «здоровый стиль жизни» имеют существенные отличия.

В противовес этому понятию, стиль жизни (< греч. Stylos – букв. палочка, стерженек) – это только одна из характеристик образа жизни, описывающая тип поведения личности, в котором зафиксированы устойчиво воспроизведимые черты, манеры, привычки, вкусы, склонности т.е. именно те характеристики, на которые школа воздействует в процессе



воспитания. Более гармонично для школы звучит и определение здорового стиля жизни - продукт самостоятельного поиска, индивидуального смыслотворчества, личной эволюции, позволяющий согласовать норму и вариативность, индивидуальность и заданность, рассмотреть специфику активности личности в реализации здорового образа жизни в индивидуальной жизнедеятельности.

Началом любой активности, в том числе и двигательной, выступает мотив, поэтому нужно уделять большое внимание стимулированию интереса к занятиям физической культурой, который является важной побудительной силой дальнейшего развития личности. Результаты исследования показали, что начальной школе 87% учеников идут на урок с желанием поиграть в различные игры. 92% учащихся предпочли бы вместо традиционных занятий нетрадиционные виды оздоровления. В среднем звене мальчики предпочитают спортивные игры, а девочки различные виды гимнастики. Именно в этом возрасте у подростков появляется желание больше узнать нового и научиться самостоятельно играть в спортивные игры для того, чтобы использовать эти навыки в свободное от занятий время. Прежде всего, потому что игры в команде для них прекрасная возможность общения. У старших школьников преобладает желание подвигаться, снять напряжение, улучшить телосложение, пообщаться.

Очень важно, как проводятся уроки в начальных классах. Именно там закладывается «школа» движений. То, как в дальнейшем будет складываться отношение к физкультуре, будет ли потребность в движениях и желание заниматься, зависит от первых шагов.

Уроки в начальных классах проводились в игровой форме, так как игра является ведущей формой деятельности в этом возрасте. В среднем звене важно установить контакт с учениками и в этом помогает диалог, как форма воспитания через общение. А уже в старшем школьном возрасте приоритетным становится самостоятельность, уважение к которой помогает влиять на выбор стиля жизни.

Основная задача учителя физической культуры воспитывать потребность в двигательной активности и формировать навыки для последующей реализации в повседневной жизни. Поэтому обучение развитию физических качеств в этом возрасте является столь значимым.

Таким образом, учитывая достижения науки, при преподавании предмета физическая культура можно воспитывать здоровый стиль жизни, овладение основами которого – прерогатива педагогического процесса развития физической культуры. Подобный стиль жизни способствует развитию личности учащихся, формированию интереса к занятиям, гармоничному развитию физических качеств.

Литературы

1. Антропова М.В. Гигиена детей и подростков. М.: “Медицина”.-1977.-с153. с33с.
2. Валентина Климова. Человек и его здоровье. М.: “Знание”.1990.-223с
3. Василева З.А., Любинская С.М. Резервы здоровья. Л.: “Медицина”. 1981.-21с.320.
4. Воробев В.И. Слагаемые здоровья. М.: “Знание”. 1987.-61с. 192с.
5. Калченко Э.И. Гигиеническое обучение и воспитание школьников. М.: “Просвещение” 1984.-с 20. с128
6. Мартыненко А.В., Валентик Ю.В., Полесский В.А и др.Формирование здорового образа жизни молодежи. М.:– “Медицина”-1988г.-с163. с192
7. Шапиро Б.М., Башмакова Л.Н., Курманова Г.У.Здоровый образ жизни. Алматы.:2003.-с12.



TELESKOP VA MIKRASKOP FIZIK HODISALARINI KUZATISHDAGI AHAMIYATI

*Ma'rufjonova Mohidil Oribjon qizi
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani
5-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining Fizika fani o'qituvchisi
Telefon: +998932681464
moxidilmurufjonova@mail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, teleskop va mikraskop haqida, ularning fizika fanida ishlash usullari, tarixiy bosqichlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: teleskop, mikraskop, linzalar, lupa, hujayralar, bakteriyalar, yulduzlar, osmon jismlari.

Bugungi kunda hayotimizni fizik hodisalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Fizika faniga oid kashfiyotlar ming yillar davomida o'rganib kelinmoqda. Bu uzoq eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Yunon olimlariyu, rim faylasuflari, bizning buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek qoldirgan katta ma'naviy meros hozirgacha o'rganib tugatilmagan. Osmon cheksiz bo'lganidek, uni va ilmlarni o'rganishni ham chegarasi va oxiri yo'q. Bir kashfiyotni kashf etish ortidan yangi bir kashfiyotlar qilishga yo'l ochiladi. Osmon jismlarini o'rganish insonlar hayotiga qanchalik ahamiyati haqida esa, Mirzo Ulug'bek "Ziji Ko'ragoniy" asarilarida juda ko'p tilsimlarga javob topib yozib qoldirgan. Buyuk ajdodimizning adabiy merosini o'rganishga esa, bugungi kunda butun dunyo astronomik olimlari bosh qo'shgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda ham bu borada juda ham keng ko'lamli amalii ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonda astronomiya fanining jadal suratlarda rivojlanishi o'rta asr davrlariga to'g'ri kelib, bu davr buyuk mutafakkirlari Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, ayniqsa Mirzo Ulug'bekning matematika va astronomiyaga qo'shgan xissasi jahon hamjamiyati tominidan e'tirof etilgan.

Astronomiya fanining kelgusida yanada taraqqiy etishi iqtidorli yoshlardan malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish talab etilishini inobatga olib, o'sib kelayotgan yosh avlodni xalqimizning astronomiyani o'rganishdagi buyuk an'analari ruhida tarbiyalash, iqtidorli yoshlarning astronomiya va aerokosmos fan va texnika asoslarini egallash uchun shart-aharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Prizidentining "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Aytib o'tish lozimki, 2017-yil dekabr oyida Prizident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Xorazmdagi "Al-Xorazmiy" nomidagi maktab-internatga ulkan teleskopni o'rnatilishi yosh iqtidor egalarini kashf etuvchi imkoniyatlarga yo'l ochdi. Mirzo Ulug'bek rasadxonasini qayta ta'mirlanishi, aniq fanlarga ta'lilda alohida e'tibor berilishi ham shular jumlasidandir.

Bugungi ma'lumot beradigan ushu maqolada, fizik hodisalarini kuzatishda g'oyat ahmiyatli bo'lgan teleskop va mikraskopning foydalanishning ayrim usullari va ta'limi niyanada rivojlantirish, kompetensiyalar asosida yana bir qulay va samarali ko'rinishi haqida keng ma'lumot beramiz.

Astronomiya, fizika kabi fanlarida foydalilanligan teleskop-uzoqdagi jismlni kattalashtirib, yaqinlashtirib ko'rsatadigan asbobni astaranomik, italiyalik olim Galileo Geliley 1610 – yilda yevropalik olimlar orasida birinchi bo'lib kuzatdi. U buyuk polyak astronomik Nikolay Kopernikni - o'ttiz yil davomida osmon jismlarini kuzatib Yer Quyosh va o'z o'qi atrofida aylanishi haqidagi xulosasi bilan fanga ulkan yangilik kiritma olim ta'lilotini davom ettirdi. Va geliosentrik nazariyaga asos soldi. U italiyalik olim Jordano Bruno kabi qyinoqlarda halok bo'lib ketishni istamadi. Dastlab, uning kashfiyotlari o'z davri kishilari tomonidan, ayniqsa, xristian dini ruhoniylari qattiq ta'qib ostiga oldilar. U uni ta'qib qilganlarga, bu ta'lilotdan voz kechganday qilib ko'rsatib, aslida esa insonlar hayotiga katta o'zgarishlarga sabab bo'luchni kashfiyotlarni amalga oshira oldi.

Barchaga ma'lumki, teleskop uzoqdagi jismlarni kattalashtirib yaqinlashtirib ko'rsatib beradigan asbob. Mikraskop esa - yaqin masofadagi ko'zga bevosita ko'rimaydigan juda mayda obyektlarni kattalashtirib ko'rsatadigan optic asbob. Mikraskopdan ko'proq bakteriyalar, hujayralar kabi mayda obyektlarni kuzatish uchun foydalilanadi. Mikraskopdan fizika fanida



amaliy faoliyatimizda foydalanishimiz. Bu usul esa o'quvchilarda tajriba va malakalarni shakllanishiga sabab bo'lувchi asosiy omildir. Chunki inson eshitganidan ko'ra ko'proq ko'rganini eslab qoladi. Broun tajribasini ham mikraskopdan foydalanib molekulalarni tartibli va tartibsiz harakatini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu tajribani qisqacha tushuntirib o'tadigan bo`lsak, qurugan bargni maydalab piyoladagi suvga maydalangan bargni solinadi. Mikraskopda molekulalarni harakatini tekshiramiz. Shunda molekulalarni harakatini mikraskopda ko'rishimiz mumkin. Molekularni mikraskopda kuzatganinigizda shunga amin bo'lasizki, molekulalar har doim harakatda qishmi, yozmi, bahormi, kuzmi, kechqurun yoki kunduz kуними ular harakatdan to'xtamasdan harakatdaligini guvohi bo'lamiz. Broun mikraskop orqali shu tajribasini aniqlagan. Mikraskop 1665-yilda Roberd Guk tomonidan ixtiro qilingan. Uning quydagi qismlari mavjud: buyum oynasi, taglik, makrovint, mikrovintokulyar obyektiv, qoplagich oyna, buyum stolchasi, kuzatish uchun linzadan tayyorlangan oynasi. Mikraskopni kashf etilishi atrofimizdagи juda ko'p mayda zarralarni ko'rish, turli hil davosi topilmagan kasalliklarga davo toppish imkonini berdi. Atrofimizdagи turli mikroblar, yuvilmagan meva va sabzavotlardagi zararlanishlani o'quvchilar bilan dars davomida kuzatganimizda, ular hayotida, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishda o'z-o'zidan ehtiyojkorlik reflekslari paydo bo'lishini kuzatamiz. Shu sababli o'ylaymanki, hatto turli tabiat, sog'lomlashtirish darslari davomida ham boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan bu fizik asbob yordamida tabiat ne'matlarini qanday holatlarda mikroblar yoki qaysi holatlarda bunday havfdan qutilishimiz haqida ko'rsatib o'rgatib borish samaraliroq bo'lar edi. Bunday xulosa kuztish va ko'rish orqali optic asboblar yordamida lupa, linza, mikraskop, fotoapparat kabi asboblar yordamida ko'rishimiz mumkin.

Takomilashtirilgan, bugungi kundagi bunday mikraskoplar yordamida ko'z ilg'amaydigan mayda obyektlarni 3-ming martagacha kattalashtirib ko'rish mumkin. Keyingi yillarda yaratilgan maxsus mikraskoplarning kattalashtirish koeffitsentin 100 minggacha o'zgartirilishi esa juda ham mayda zarralarni ko'rish va o'rganish uchun yo'1 ochdi.

Teleskop uzoqdagi ya'ni 500-600 metr uzoqlikdagi buyumni yaqinlashtirib ko'rsatib beradi. Teleskopni vazifasi jismdan keluvchi nurlarni ko'rish burchagini oshirib beradi. Teleskopni endi biz optimal kattalashtirishini o'rganamiz. Optimal kattalashtirish deganda biz ko'rish burchagini bir necha marotaba kattalashtirib berish tushuniladi. Biron bir masofada biron bir buyum joylashgan bo'lsa, masalan, oydan kelayotgan nurlarni ko'rsak, cheksizlikdan A nuqtadan keluvchi nurlar deb qarash mumkin. Agar shu nurlarni yo'liga qaraydigan bo`lsak yulduzlar katta bo'lishiga qaramasdan ular juda uzoqda joylashgani uchun ular bizga kichik bo'lib ko'rindi. Chunki, ulardan kelayotgan nurlar chetki burchakdan kelayotgani uchun kichik burchakni xosil qiladi. Shuning uchun bizga yulduzlar kichkina bo'lib ko'rindi. Juda uzoqda joylashgan buyum linzamizni focus masofasida hosil bo'ladi. Va ular juda kichik bo'lib ko'rinishi shundandir.

Bunday fizik hodisalarni amaliy tajribalar bilan tashkil etish, o'quvchilar ko'z o'ngida amalga oshirishimiz ularni fikrlash qobilyatlarini yanada oshiradi va buyuk kashfiyotchilar yetishib chiqishiga omil bo'ladi desak also mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalaniman adabiyotlar va manbalar ro'yhati

1. Mirzo Ulug'bek "Ziji Ko'ragoniy" electron kitob.
2. ziyonet. uz.



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН МЕТОДЛАР

*Мадазимов Гайбулло Нарзуллаевич
Наманган вилояти Чортот туман
1-мактаб жисмоний тарбия фани ўқитувчisi*

Аннотация. Мақолада жисмоний тарбия жараёнида қўлланиладиган методлар тўғрисида фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: ҳиссий қабул этиш, кўргазмалилик, жисмоний юкланиш.

Жисмоний тарбия жараёнида турлича методлар қўлланилади. Улар билвосита ёки бевосита ҳиссий қабул этиш, сўз орқали ёки кўргазмалилик, ёки амалий ҳаракат фаолиятидан фойдаланишга асослангандир. Жисмоний тарбия методларига, асосан, амалий ҳаракат фаолияти киради, лекин бирорта таълим тарбияни сўз ва кўргазмалилик методларга асосланмасдан туриб олиб бориб бўлмайди. Бу эса жисмоний тарбия методлари билан бир қаторда шу жараёнга кирувчи бошқа ҳамма методларни акс эттиради.

Жисмоний тарбия методларининг муҳим асосларидан бирини жисмоний юкланишни бошқариш ва уни дам олиш билан алмаштириш таркиби ташкил этади. Жисмоний юкланиш деб жисмоний машқларни организмга таъсир этувчи ҳамда содир бўладиган объектив ва субъектив қийинчиликларни енгиш даражасига айтилади. Жисмоний юклама организмнинг иш потенциали сарфланиши ва чарчашиб билан бевосита боғлиқ бўлиб чарчашиб жисмоний юкланиши билан ифодаланган тикланиш жараёни рўй берадиган дам олиш билан боғлиқдир. Шундай қилиб, жисмоний юклама чарчашиб орқали иш қобилиятини тиклаш ва оширишга олиб келади. Жисмоний юкланишнинг самарадорлиги унинг ҳажмига ва шиддатига кўп пропорционал. Жисмоний юкланишнинг ҳажми деб айрим машқларнинг кўп вақтли таъсирчанлиги шунингдек маълум бир вақтда бажарилган жисмоний ишларнинг миқдорий йиғиндисига айтилади (айрим машғулот ёки унинг бир кисми давомида, бир ҳафта ва х.к.). Жисмоний юкланишнинг шиддати унинг ҳар бир моментдаги

таъсир кучи, функция кучланганлиги, таъсирнинг бир вақтдаги қиймати билан ҳарактерланади. Шиддат кўрсаткичлари: ҳаракатни тезлиги, ишларнинг куввати, қаршиликлар оғирлиги, шунингдек машқлар бажарилишини тезлиги ва х.к. Жисмоний юкланишнинг ҳажми ва шиддати кўрсаткичлари орасида тескари пропорционал муносабат мавжуд. Бундан шу нарса келиб чиқадики баъзи машқларни шиддати қанча юкори бўлса шунчалик ҳажм имконияти кам бўлади, ва аксинча. Жисмоний юклама жисмоний тарбиянинг турли методларида стандарт, такрорлаш машъль методи ҳар бир вақтида ўзининг ташқи параметрлари билан амалий бир хил ва ўзгарувчан бўлади. Иккала типдаги жисмоний юкланишлардан фойда чарчашиб ҳосил қилган бир фаолиятдан бошқа иккинчи фаолиятга ўтиш бўлиши мумкин. Жисмоний юклама қисмлари оралиғининг узоқлиги тикланиш процессларининг содир бўлиши қонуниятлари ва йўналтириш таъсирлари асосида ўрнатилади. Интервални 3 типи мавжуд:

1. Тўлиқ интервал (ординарный).
2. Қаттиқ ёки субинтервали.
3. Экстремалли ёки субинтервалли.

Тўлиқ ёки ординар интервал бу кейинги жисмоний юкламақисмигача амалий тўлиқ иш қобилияти тикланиши. Бунда ишни қўшимча функция кучланышсиз амалга ошириш имкониятини беради.

Қаттиқ интервалда кейинги жисмоний юкламақисми етарлича тикланмаган вақтга тўғри келади - маълум вақтгача ишни давом эттириш мумкин, лекин ташки сон кўрсатишида ўзгаришсиз бўлиши ва физиологик ҳамда психологияк кўрсаткичлари ортиб боради.

Экстремал ёки субинтервалли интервал – бунда кейинги жисмоний юкламақисми юкори ишчанлик қобилияти фазасига тўғри келади. Тикланиш жараёнининг қонуниятлари натижасида пайдо бўлади. Шундай қилиб жисмоний тарбия методлари асосларида жисмоний юкламава дам олишда тўғри фойдаланиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Киличов Илёс. Жисмоний тарбия назарияси ва услубиёти. – Бухоро: 2016 й

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(11-қисм)

**Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 30.07.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000